

AZIZ NESIN HIKOYALARI POETIKASI

Mo'sinjonova Oyjahon G'ayratjon qizi

FarDU o'zbek tili yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Maxmidjonov Shoxruxbek

FarDU o'qtuvchisi

Annotatsiya. Maqolada turk yozuvchisi Aziz Nesinning hazil - mutoyibaga boy hikoyalari va uning asarlaridagi ijtimoiy tanqidni tushunishning asosiy elementlari yoritiladi. Tahlilga Nesinning hajviy uslubi, xarakter taraqqiyoti va ijtimoiy tanqidini o'rGANIB, asarlarining teranligini tushunishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Hikoya janri, Aziz Nesin, ijtimoiy tanqid, absurdizm, xarakterlar rivojlantirish, kinoya, ironiya, satira.

Аннотация. В статье освещаются богатые юмором рассказы турецкого писателя Азиза Несина и основные элементы понимания социальной критики в его произведениях. Анализ фокусируется на понимании глубины работ Несина, исследуя его комический стиль, развитие персонажей и социальную критику.

Ключевые слова. Жанр рассказа, Азиз Несин, социальная критика, абсурдизм, развитие характера, ирония, ирония, сатира.

Annotation. The article highlights the humorous stories of the Turkish writer Aziz Nesin and the main elements of understanding social criticism in his works. The analysis is aimed at understanding the teranness of Nesin's works, studying his comic style, character development and social criticism.

Keywords. Story genre, Saint Nesin, social criticism, absurdism, character development, irony, irony, satire.

Aziz Nesin – turk yozuvchisi, hikoyachisi, romanchisi, shoiri va yumorchisi sifatida tanilgan. Adib, ayniqsa, hazil-mutoyiba va tanqid sohasidagi asarlari bilan ajralib turadi. Aziz Nesin adabiy faoliyatini hikoyachilikdan boshlagan. Biroq u hazil-mutoyiba asarlari va ijtimoiy tanqidi bilan shuhrat qozondi. Umuman olganda, u hikoyalarida turk jamiyatining turli qatlamlariga, ijtimoiy muammolarga kinoyaviy uslubda murojaat qilgan. Uning "Hozirgi kun bolalari ajoyib" (1953) asari Nesinni hajviy yozuvchi sifatida mashhur qilgan muhim asardir. Uning 1944-yilda nashr etilgan "Sud jarayoni" qissasi o'sha davr hukumati tomonidan besh yilga qamoq jazosiga hukm qilingan. Bu davrda u siyosiy qarashlari tufayli bir necha marta qamoq jazosiga hukm qilingan. Aziz Nesin asarlari Turkiyada turli davrlarda senzuradan o'tkazilgan. Uning folklorshunos va yozuvchi sifatidagi asarlari xalq madaniyatiga qiziqishi bilan tanilgan Aziz Nesin turk xalq hikoya va rivoyatlarini tuzib nashr etgan. U roman muallifi sifatida ham tanilgan "Memed, menin qalxatim" (Ince Mehmed) asari Orxan Kamol yozgan "Ince Mehmed" romanining davomi

sifatida Nesin tomonidan yozilgan.U o'z asarlari, ijtimoiy tanqidi va adabiy iste'dodi bilan turk adabiyotida muhim o'r'in tutadi. Aziz Nesinning hikoyalari, odatda, hajviy uslubda yozilgan va ijtimoiy tanqidni o'z ichiga olgan. Aziz Nesin hikoyalarining umumiyl tahlili quyida ko'rsatiladi.

Adibning hazil uslubi shundayki, o'z asarlarida kulgili tillardan foydalanib, o'quvchilarini kuldirishni maqsad qilgan. U o'z hikoyalarida tez-tez karikatura qilingan personajlar va absurd voqealar bilan kulgili muhit yaratadi. Ijtimoiy tanqid. Nesin hikoyalarida, odatda, ijtimoiy muammolar, ziddiyatlar tanqid qilinadi. Ijtimoiy sinflar tafovutlari, ta'lif tizimi, byurokratiya kabi mavzular uning asarlarida tez-tez muhokama qilinadigan mavzular qatoriga kiradi. Misol uchun yozuvchining quyidagi hikoyasini olishimiz mumkin: "Hozirgi kun bolalari", "Jinnilar ozod bo'ldi" kabi hikoyalar.

Yozuvchi hikoyalarida xarakterlarning xilma-xilligi ko'rishimiz mumkin. "Ibratli tasodif" hikoyasidan:

"O'qituvchimiz shu voqeani aytib bergach, bizga bunday degan edi:

- Tanasi ilma-teshik bo'lib ketan bir ilonning yaxshilikka yaxshilik qaytarish niyatida shuncha yo'l bosib, tayoqning singan uchini sudrab kelishi aslida aql borvar qilmaydigan narsa. Lekin bu bo'lgan voqe. Qolaversa, buni ibratli tasodif desa ham bo'ladi". Yozuvchi o'z asarlarida personajlardan keng foydalanadi. Unga turli ijtimoiy tabaqa va maqomlardagi, qishloq ahlidan tortib amaldorlargacha, o'qituvchilardan tortib ishchilargacha bo'lgan personajlar kiradi. Bu belgilar odatda ijtimoiy muammolarning vakillari sifatida qaraladi. Xalq madaniyati va an'analar. Aziz Nesin o'z hikoyalarida turk xalq madaniyati va an'analariga tez-tez murojaat qiladi. Qishloq hayoti, an'anaviy qadriyatlar va modernizatsiya jarayonida ushbu qadriyatlarning o'zaro ta'siri ularning hikoyalarida muhim o'r'in tutadi.

Nesin asarlarida ba'zan "Noyob mikrob" hikoyasi kabi absurd voqealar, mantiqsiz holatlar ham uchraydi. Jamiatning absurd tomonlarini yoritib, tanqid qilishni muallif maqsad qilgan. "– Xo'sh, bemorning o'zi qalay? – deb so'rab qoldi u davolovchi assistentdan.

- Og'riq to'xtadi.
- Aniqroq qilib gapiring.
- Ikkala ko'zi so'qirlashdi".

Nesin ijodida ironiya va satiradan keng ishlatgan. "Idol Branskiy" va "Agar" hikoyalarida aks etadi. Yozuvchi o'z hikoyalarida istehzodan tez-tez foydalanadi. Voqe va personajlarni kinoyali uslubda tasvirlab, o'quvchilarni ijtimoiy faktlar ustida fikr yuritishga, kinoya qilishga undaydi. Inson huquqlari va erkinliklari. Nesin asarlarida inson huquqlari, erkinliklari, tengligi ta'kidlangan. U bu boradagi tanqidlarini komediya va satira bilan tez-tez aralashtirib bildiradi.

"Azizim, Bahri Filfil! Maktubingda qachon uylanishim haqida so'rabsan. Agar qaylig'im ish topa olsa, agar xo'jayin unga tegajoqlik qilganida o'jarlik qilgani uchun ishdan haydar yubormasa, agar maoshimizga loyiq kvartira topa olsak, agar ba'zi zarur mebellarni xarid qila olsak, agar bosh ministrimiz va'da qilgan iqtisodiy

yuksalish ro'y berib, esimni taniganimdan beri gapiriladigan turmush darajamiz yaxshilabnib, maoshim oshsa, agar o'n yildan buyon uylanishimni kutayotgan qaylig'imning sabr-toqati tugamasa, agar meni ta'qib ostiga olishmasa, uzoqroqqa badarg'a qilishmasa, ishdan haydashmasa, yaqin kunlarda, albatta uylanaman." ("Agar..." hikoyasi).

Muallif o'z asarlari bilan o'quvchilarni kuldirish bilan birga, ularni o'ylantirib borishni ham maqsad qilgan. Ijtimoiy masalalarini tanqid qilar ekan, o'quvchilariga chuqur fikr yuritish imkoniyatini beradi. "Jo'rovoz bo'lib" hikoyasida "Tovuqlar kurk bo'lib, jo'ja ochadigan payt keldi deguncha osmonda kalxatlar izg'ib qolardi. Mabodo birorta kalxat jo'jaga chang solmoqchi bo'lib yerga sho'ng'isa bormi, ona tovuq darhol qanotlarini kerib, patlarin hurpaytirib olar, bolalarini xatardan ogoh qilmoqlik uchun qaqqillagan ovoz chiqarardi. Buni eshitib, jo'jalar pana joylarga qochib qolishardi". Aziz Nesinning hikoyalari turk adabiyotida uning asl va tanqidiy ovozini aks ettiruvchi muhim asarlardir. Yozuvchining humoristik iste'dodi, ijtimoiy sezgirligi, hikoyalarning teranligi uning asarlarini vaqt o'tishi bilan mashhur va ta'sirchan qilib qo'ygan.

Xulosa o'rnida aytishim mumkinki, Aziz Nesin hikoyalari mavzu mundarijasi va mazmun ko'lamiga boy. Asarlarida yozuvchi jamiyat illatlarini fosh qiladi, kulgili vaziyat, xususiyat va holatlar orqali kishilarni beixtiyor o'z nuqsonlaridan kulishga majbur etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. – Toshkent. Ma'naviyat". 2002
2. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xalqlar adabiyoti. – Nukus. 2012.
- Maxmidjonov, S. (2023). O'ZBEK ADABIYOTIDA ZIYOLI OBRAZINING GENEZISI. Zamonaviy ilm-fan va tadqiqotlar, 2(6), 1231-1235.
3. Maxmidjonov,S.D.O.G.L.(2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(6), 520-524.
4. Maxmidjonov, Shoxruxbek Dilshod O'G'Li (2023). O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA BADIY OBRAZ MASALASINING QIYOSIY TALQINI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (6), 520-524.
5. Maxmidjonov, S. (2023). THE GENESIS OF THE IMAGE OF AN INTELLECTUAL IN UZBEK LITERATURE. Modern Science and Research, 2(6), 1231-1235.
6. Makhmidjonov, S. (2021). Artistic Interpretations Of The Edges Of The Human Psyche. Интернаука, (15-3), 75-76.
7. Sabirdinov, A. (2019). Sketches to the novel "Night and day" by Chulpan. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 119-120.

8. Oripova, G. (2019). UZBEK POETRY AND THE WORLD LITERATURE IN THE YEARS OF INDEPENDENCE. Scientific Journal of Polonia University, 32(1), 116-120.
9. Qosimov, A. A. (2020). "DORIAN GREYNING SURATI" VA "OYNADAGI ODAM" ROMANLARIDA RAMZIY IFODANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA O'XSHASHLIKHLARI. Nazariy Va Amaliy Fan, (5), 590-592.
10. Qosimov, A., Hamroqulov, A., & Xo'jayev, S. (2019). Qiyoziy adabiyotshunoslik. Toshkent: Akademnashr.